



UO'K 622.276. 1/4.

UMID KONINING GAZLI YOTQIZIQLARINI ISHLASH KO'RSATGICHLARINI BAHOLASH

Khujamov Bobodust Kurbonurdi ugli

Bekjonov Rozisher Soatmurodovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Umid gaz osti neft konining joriy ishlash holatini tahlili keltirilgan. Konning texnologik ko'rsatgichlarini tahlil qilish orqali neft qazib olishni oshirish choralarini ko'rish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. mahsuldor qatlam, o'tkazuvchanlik, g'ovaklik, gorizont, qatlam, solishtirma og'irlik, qazib olish, kapital ta'mir, intensivikasiya, quduq.

Kirish. Buxoro-Xiva neft-gazli hududidagi gaz osti neft konlarini o'zlashtirish xususiyatlari bo'yicha G.A. Alijonov, F.T. Odilov, P.K. Azimov, A.X. Agzamov, E.K. Irmatov, S.N. Nazarov, U.S. Nazarov, F.I. Makushev, A.B. Grinenko, G.A. Shaxnazarov, O.K. Bekmetov kabi yetuk olimlar tomonidan ilmiy va amaliy ishlar olib borilgan.

Umid neftgaz koni Qashqadaryo viloyatining Mirishkor tumanida joylashgan. Kondan neft qazib olish 1979 yildan boshlangan. "Qorovulbozor" NGQE tomonidan chuqur izlash, qidirish va burg'ilash ishlari olib borilgan. Dastlab 12 ta qidiruv quduqlari qazilgan. Shundan 11 ta quduq natijalariga asoslanib, 1983 yilda Umid konini ishlatishni sinov loyihasini ishlab chiqildi. 2001 yilga qadar shu loyiha asosida kon ishlatilib kelingan va hozirgi kunda 2010 yilda "O'ZLITINEFTGAZ" AJ tomonidan ishlab chiqilgan «Proyekt razrabotki mestorojdeniye Umid» loyihasi asosida 6-variant qabul qilinib shu variant asosida ishlatilmoqda [1,2].


Tadqiqot metodologiyasi

Umid konining neft va gaz mahsuldor qatlami XV-HP+XV-P gorizontlarda rif-oxaktoshida mujassamlashgan. Geologik qidiruv ishlarining ma'lumotlariga




qaraganda Umid qoplamasi ikki gumbazli, uzunligi 8,5 km o'rta qismidagi eni 4 km, balandligi 140 metrlik rifdan iborat (1-rasm). Umid konida gaz qatlamining qalinligi 110-125 m, neft qatlamining qalinligi 10-12 m., uyum o'lchami 8,4x3,9 km (2-rasm). O'rtacha neftga to'yingan qatlam 6,7 metr deb olingan. Maydon o'tkazuvchanligi 100 md, g'ovakligi 14,1 %, boshlang'ich neftga to'yinganligi 0,76%, gazli zonada g'ovakligi 13,2 %, gazga to'yinganligi 0,82 % [2,3].

Umid konidagi neftning qovushqoqligi 1,17 sPz, solishtirma og'irligi 0,848 g/sm³ ga teng. Kondensatning solishtirma og'irligi esa 0,781 g/sm³.




1–rasm. Umid konining tuzilmali xaritasi



2 –rasm. Umid konining №№79,80,83 quduqlar kesimi

Loyiha bo'yicha 2022 yilda kondan 2,1 ming tonna neft qazib olish kerak edi, amaliy esa 2,53 ming tonna neft olindi. Bu loyihaga nisbatan 1,2 % ga ko'p. Kon ishlatila boshlangandan buyon 850,947 ming tonna neft qazib olindi, loyiha bo'yicha bu ko'rsatkich 979,5 ming tn ni tashkil etadi. Bu olinadigan zaxiraning 31,3 % foizini tashkil etadi. Loyihada 36,02 % foizga teng. Joriy neft bera oluvchanlik koeffitsienti 0,005 ni tashkil qildi. Qabul qilingan neft bera oluvchanlik koeffitsienti 0,023. O'rtacha suvlanganlik loyihada 96,6 % ni, amalda 97 % ni tashkil etdi. Joriy yilda kondan 11,346 ming m³ yo'ldosh gaz va 21545 m³ umumiy suyuqlik olindi. Kon ishlay boshlagandan 452274 ming m³ yo'ldosh gaz va 2589392 ming m³ umumiy suyuqlik qazib olingan (3-rasm).



3- rasm. Umid konining ishlatish dinamikasi

Neft qazib olishda asosan 2 ta №№ 31, 66 – sonli quduqlar ishlatildi. 2022-yilda konda intensifikatsiya ishlari olib borildi. №№45, 46-sonli quduqlarda PGSKO (gaz ko‘pikli kislotali ishlov berish) ishlari olib borildi va kunlik qo‘shimcha 10 ming m³ gaz qazib olishga erishildi.

Konda 01.01.2023 yil holati bo‘yicha jami quduqlar soni 74 tani tashkil qilib, ishlatiladigan quduqlar 18 ta, ya‘ni 2 ta neft va 16 ta gaz quduqlari mavjud [2].

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, 2023 yilda loyiha bo‘yicha quduqlar fondi 17 ta bo‘lishi kerak edi, shundan 7 ta neft, 10 ta gaz qudug‘i bo‘lish kerak. Amalda esa konni ishlatishda 16 ta gaz, 2 ta neft qudug‘i faoliyat ko‘rsatdi. Loyiha bo‘yicha



2023 yilda neft qazib olish 2,1 ming.tn, kondensat 5 ming.tn, gaz 88,6 mln.m³ ni tashkil qilish kerak edi. Amalda esa yillik neft qazib olish 2,528 ming.tn, imkoniy kondensat 7,407 ming.tn, gaz 364,335 mln.m³ ni tashkil qildi. Loyihaga nisbatan neft qazib olish 0,428 ming.tn ko'p qazib olindi. Loyihaga nisbatan gaz 275,735 mln.m³, kondensat esa 2,407 ming.tn ko'p qazib olindi.

Texnologik ko'rsatkichlarni tahlil qilganimizda, neft qazib olish loyihaga nisbatan 0,428 ming.tn ko'p qazib olinganligiga sabab, kapital ta'mirlashdan chiqqan №№79,21 -sonli quduqlarni tarkibida neft miqdori bo'lganligi, loyiha bo'yicha 7 ta neft quduq bo'lish kerak edi amalda esa yil oxirigacha 2 ta neft qudug'I ishlatilganligi hisoblanlanadi. 01.04.2023 yil. Holatida №№ 31, 66 -sonli quduqlarni suv miqdori ko'tarilishi natijasida Janubiy Kemachi SKS ga yo'ldosh gazni berish to'xtatildi.

Ishlab chiqilgan takliflar va rejalar

Konda 2024 yilda quyidagi ishlar rejalashtirilgan:

1) kapital ta'mirlash bo'yicha tugatilgan quduqlar fondida turgan №13 quduqni 3-kvartalda telesistema yordamida 2-stvol burg'ilash xamda doimiy produvka bilan ishlatiladigan №16 sonli quduqda ham telesiistema yordamida 2-stvol burg'ilash ishlari olib borilib, ishlatiladigan quduqlar fondiga qaytarish [4,5];

2) kon hududida joylashgan GYP-2 ga ishlatilayotgan past bosimli quduqlarni Janubiy Kemachi koni SKS ga uzatish orqali kunlik 20 ming m³ gaz qazib olishga erishish [6];

3) quduqlardan gaz kazib olish barkarorligini ushlab turish maksadida quduklarni ishchi xolatiga karab 4 ta quduqda PGSKO ishlarini olib borish maksadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Проект разработки месторождение Умид - "O'ZLITINEFTGAZ" AJ, Toshkent, 2010.



2. Umid konining geologik hisoboti, Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi. -2023 yil.

3. Mukhammadiyev, K. (2023). GAZLIFTLI QUDUQLARINI OQILONA ISHLASHINI TANLASH VA ASOSLASH. Innovatsion texnologiyalar, 51(03), 11-16.

4. Murodillayevich, M. H., & Axadulla o'g'li, T. S. (2023). UMID KONI QUDUQLARINI TO'YINISH CHEGARASI RADIUSINI BAHOLASH. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(15), 52-56.